

2-TOM, 11-SON

Yoshlarning huquqiy va siyosiy madaniyatini yuksaltirishda fuqarolik jamiyati institutlarining ishtiroki

Shodiyev Ma'rufjon Mirsalimovich

Navoiy davlat pedagogika instituti tadqiqotchisi.

Tel: 99-755-88-66

E-mail: m.shodiyev@mail.ru

O'zbekiston, Navoiy vil. Navoiy shahri

Annotatsiya. Ushbu maqolada bugungi kunda yoshlar huquqiy va siyosiy madaniyati va uni yuksaltirish jarayonida fuqarolik jamiyati institutlarining o'rni va ishtiroki haqida fikr va mulohazalar keltirilgan.

Kalit so'zlar. Huquq, manfaat, qonun, jarayon, jamiyat, institute, siyosiy madaniyat, siyosiy-huquqiy.

Shodiyev Marufjon Mirsalimovich

Researcher of the Navoi State Pedagogical Institute.

Phone: 99-755-88-66

E-mail: m.shodiyev@mail.ru

Uzbekistan, Navoi village. Navoi city

Participation of civil society institutions in raising the legal and political culture of young people

Abstract. This article presents thoughts and opinions about the legal and political culture of young people today and the role and participation of civil society institutions in the process of its improvement.

Key words. Law, interest, law, process, society, institution, political culture, political-legal.

Шодиев Маруфжон Мирсалимович

научный сотрудник Навоийского государственного педагогического института.

Телефон: 99-755-88-66

Электронная почта: m.shodiev@mail.ru

Узбекистан, село Навои. город Навои

Участие институтов гражданского общества в повышении правовой и политической культуры молодежи



2-TOM, 11-SON

Аннотация. В данной статье представлены мысли и мнения о правовой и политической культуре современной молодежи, а также о роли и участии институтов гражданского общества в процессе ее совершенствования.

Ключевые слова. Право, интерес, право, процесс, общество, институт, политическая культура, политико-правовой.

Kirish (Introduction). O‘zbekiston Respublikasining mustaqillikni qo‘lga kiritib, demokratik huquqiy davlatni qurish, fuqarolik jamiyatini barpo etish maqsadlarini oldiga qo‘ygan holda izchil islohotlar olib borayotganiga ham 33 yil bo‘lgan bo‘lsa, bu yillarda mamlakatimiz aholisining 60 foizdan ortiqroq qismini tashkil etuvchi yoshlarga, ularning barkamol avlod bo‘lib yetishishlariga, huquq va manfaatlarini himoya qilishga va har tomonlama qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan eng yuksak demokratik hamda xalqaro talablarga javob beradigan mustahkam huquqiy baza yaratildi. Jumladan, kuni-kecha yangilangan Konstitutsiyamizda ham yoshlar manfaatlari maxsus moddalarda mustahkamlab qo‘yildi. Jamiyatni demokratlashtirish va liberallashtirish, aholining, jumladan yoshlarning siyosiy-huquqiy madaniyati, ijtimoiy ongi va dunyoqarashini oshirishga, ularning eng muhim sotsial-iqtisodiy muammolarini hal etishga qaratilgan ko‘plab qonun va qonun osti hujjatlari qabul qilindi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review). Mamlakat siyosiy-huquqiy tizimining barqarorlik holati bir tomondan amalga oshirilayotgan ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy-ma‘rifiy islohotlar, ikkinchi tomondan esa ana shu jarayonlarga mos holatda shaklanlanadigan jamiyat siyosiy-huquqiy madaniyatining darajasiga bog‘liqdir. Shu hijatdan barqarorlikni ta‘minlovchi omillarni shartli ravishda siyosiy, iqtisodiy, mafkuraviy va ijtimoiy-madaniy omillarga bo‘lish mumkin. Shuningdek, ularning o‘zaro aloqasi va o‘zaro ta‘sirini hisobga olish lozim. Bu borada rus olimlari Y.V.Irxin, V.D.Zotov, L.V.Zotovalar jamiyat siyosiy barqarorlikning asosiy shartlari va omillarini quyidagicha ajratib ko‘rsatish maqsadga muvofiqligini ta‘kidlaydilar.

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). O‘zbekistonda yoshlar masalasi davlat siyosatining eng ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Zero, yoshlar tarbiyasi-muhim, bir vaqtning o‘zida, dolzarb masala. Shu sabab, mamlakatimizda ham O‘zbekiston Respublikasini siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy-ma‘naviy rivojlantirishning muhim omili bo‘lgan yoshlar tarbiyasi davlat siyosatining ustuvor darajasiga ko‘tarilgan. Chunki jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy va texnologik jihatdan qanchalik taraqqiy etmasin, har bir tarixiy davr inson ma‘naviy-ma‘rifiy kamoloti, yoshlar tarbiyasi borasida yangidan-yangi, murakkab masalalarni kundalang qo‘yaveradi. Aslida bugungi globallashtirilgan jarayonda ham o‘zaro kelayotgan yosh avlod ma‘naviy olamini yuksaltirish,



2-TOM, 11-SON

yoshlarni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Hozirgidek murakkab sharoitda milliy o'zligimiz, azaliy qadriyatlarimizga yot bo'lgan xurujlar, yoshlarning ongi hamda qalbini egallashga qaratilgan g'arazli intilishlar tobora kuchayib borayotgani har birimizdan yanada hushyor va ogoh bo'lishni talab etmoqda. Yoshlar ongida milliy va umuminsoniy qadriyatlarni shakllantirish va rivojlantirish masalalari har doim dolzarb bo'lib kelgan.

Ma'lumki, har qanday davlatning taraqqiyoti va kelajak qiyofasi yoshlarning bilim va intellektual salohiyati, jismonan va ma'nan barkamolligiga bog'liq. Jamiyatimizda huquqiy madaniyatni yuksaltirishda, eng avvalo, huquqiy ta'lim va tarbiya borasidagi ishlar tizimli va uzviy olib borish, bunda oila, mahalla va fuqarolik jamiyati boshqa institutlarining samarali ishtirokini ta'minlash, aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirishning innovatsion usullaridan, targ'ibotning ilg'or va ta'sirchan vositalaridan, xorijiy davlatlarning bu boradagi ijobiy tajribalaridan, fuqarolarning ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlar bilan uyg'un ravishda huquqiy bilimlarini oshirib borishning zamonaviy usullarini joriy etish, shuningdek, aholini, ayniqsa, yoshlarni zararli axborotlardan himoya qilish bo'yicha mustahkam huquqiy immunitetni shakllantirish muhim sanaladi. Bu ishlarni tizimli amalga oshirishda nafaqat huquqni muhofaza qilish organlari balki, Sud organlari xodimlari, ta'lim muassasalari xususan Oliy ta'lim muassasalari tizimli ishlarni tashkil etishlari lozim. Bu borada Farmonda nazarda tutilgan "shaxs – oila – mahalla – ta'lim muassasasi – tashkilot – jamiyat" prinsipi bo'yicha tizimli va uzviy ishlar amalga oshirilishi maqsadga muvofiq. Demokratik huquqiy davlat, erkin fuqrolik jamiyatini rivojlantirish, hamda yangi O'zbekistonni rivojlangan davlatlar qatoridan munosib o'rin egallashiga erishish kabi buyuk maqsadlar oldida yoshlarning huquqiy savodxonligi va huquqiy madaniyatini rivojlantirish eng ustuvor vazifalardan biridir. Yuksak huquqiy madaniyat – jamiyat taraqqiyotining asosi ekan, demak, ta'lim-tarbiyani modernizatsiyalash, jahon andozalari darajasida tashkil qilishda huquqiy tarbiya ham alohida ahamiyat kasb etadi.

Tahlil va natijalar (Analysis and results). Bugun mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-siyosiy islohotlar jarayonida shakllanayotgan siyosiy madaniyatda o'tmishdagi, hozirgi kundagi va chet ellardagi siyosiy madaniyatning ta'sirini ilg'ash qiyin emas. G'arb demokratik mamlakatlarida davlat, jamiyat va shaxsning o'zaro hamkorligida asosan fuqarolik jamiyati va shaxs yetakchilik qilsa, O'zbekistonda bunday uyg'unlik faqat hozirgi bosqichda shakllanmoqda. Bundan tashqari, siyosiy madaniyat bizda hokimiyat uchun kurash tarzida emas, balki ijtimoiy-siyosiy muammolarni davlat, hokimiyat institutlari bilan birgalikda, an'anaviy-axloqiy qadriyatlarga tayangan holda yechish ko'rinishida yuzaga kelmoqda. O'zbekistonda fuqarolik jamiyati va huquqiy davlat barpo



2-TOM, 11-SON

etishning eng muhim shartlaridan yana biri fuqarolarning ijtimoiy-huquqiy faolligini oshirish, jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirishdir. Milliy mustaqillik yillarida O'zbekistonda yangi davlat va jamiyat qurish masalasida rivojlangan mamlakatlarning ilg'or tarixiy tajribasini chuqur o'rganish natijasida fuqarolik jamiyatini barpo etishdagi "O'zbek modeli" ning nazariy asoslari ishlab chiqildi. Unga ko'ra "Kuchli davlatdan — kuchli fuqarolik jamiyati sari" konseptual dastur va O'zbekistonda fuqarolik jamiyatini shakllantirish amaliyotda o'z ifodasini topib bormoqda

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations). Yoshlarning huquqiy va siyosiy madaniyatini yuksaltirishda fuqarolik jamiyati institutlarining ishtiroki juda muhimdir. Quyidagi jihatlar bu jarayonni yanada takomillashtirishga yordam beradi:

1. Ta'lim va treninglar: Fuqarolik jamiyati institutlari, masalan, nohukumat tashkilotlari (NHT), yoshlar uchun huquqiy va siyosiy ta'lim dasturlarini ishlab chiqishi va o'tkazishi mumkin. Bu traininglar yoshlarni ularning huquqlari, majburiyatlari va siyosiy jarayonlar haqida ma'lumot berish orqali ularning ongi va madaniyatini oshiradi.

2. Ishtirok etish imkoniyatlari: Fuqarolik jamiyatlari yoshlarni siyosiy jarayonlarga jalb qilish orqali ularning ishtirokchi sifatida tajriba orttirishlariga yordam berishi mumkin. Yoshlar, turli tadbirlar va kampaniyalarda faol ishtirok etish orqali o'z fikrlarini bildirish, tashabbus ko'rsatish va ijtimoiy o'zgarishlarga hissa qo'shish imkoniga ega bo'lishadi.

3. Ovoz berish va saylov jarayonlari: Fuqarolik jamiyati institutlari saylovlar va demokratik jarayonlar haqida yoshlarni ogoh qilishda muhim rol o'ynaydi. Yoshlarni ovoz berishga undash orqali ularni aktiv fuqarolar sifatida tarbiyalash mumkin.

4. Tarmoq va hamkorlik: Yoshlar o'rtasida tarmoq yaratish va fuqarolik jamiyatining boshqa guruhlari bilan hamkorlik qilish ularga o'z fikrlarining kuchini oshirishga, rejalarini amalga oshirishga yordam beradi.

5. Monitoring va hisobdorlik: Fuqarolik jamiyatlari, davlat organlarining faoliyatini nazorat qilish va shaffoflikni ta'minlash uchun yoshlar bilan hamkorlik qilishi, ularni huquqiy va siyosiy jarayonlarga ko'maklashishda jalb qilishi mumkin.

6. Ijtimoiy masalalar: Fuqarolik jamiyati institutlari yoshlarning ijtimoiy masalalar, muammolar va o'zgarishlarga bo'lgan qiziqishini oshirish orqali ularni faol ishtirokchilarga aylantira oladi.

Bularning barchasi yoshlarning huquqiy va siyosiy madaniyatini yuksaltirishga yordam beradi va ularni faol, ongli va mas'uliyatli fuqarolar sifatida tayyorlashga xizmat qiladi.



2-TOM, 11-SON

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati (References)

1. Jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish bo'yicha tadbirlarni monitoring qilish va baholash to'g'risida Nizom. 2019-yil 20-aprel. (<https://lex.uz/ru/docs/4300837>)
2. Amirov Z. "Huquqiy xabardorlikni oshirish huquqiy ong va madaniyatni yuksaltirish vositasi sifatida" // Jamiyat va boshqaruv –2015. №3
3. Rasulov, Hakim. "HUQUQIY MADANIYAT SHAKLLANISHINING IJTIMOIIY-SIYOSIY OMILLARI." Interpretation and researches 1.1 (2023).
4. Karimova O.A. Yoshlar huquqiy tarbiyasining asosiy yo'nalishlari. - T.: O'zbekiston. 1999.
5. Tuychiyeva H.N. Huquqni o'qitish metodikasi. –T.: Toshkent islom universiteti, 2008.

